

MA'NAVIY ISLOHOTLAR YANGI BOSQICHDA

O'rozaliyev Oybek Abdujamol o'g'li

Oriental universiteti “Yoshlar bilan ishslash,
ma'naviyat va ma'rifat” bo'limi boshlig'i

O'zbekiston Respublikasi yangilangan Konstitutsiyasining muqaddimasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, unda quyidagi chuqur mazmunga ega fikrlarni uchratish mumkin: biz, O'zbekistonning yagona xalqi, inson huquq va erkinliklariga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga, davlat suvereniteti prinsplariga sodiqligimizni tantanali ravishda e'lon qilib, demokratik, erkinlik va tenglik, ijtimoiy adolat va birdamlik g'oyalariga sadoqatimizni namoyon qilib, inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni va qadr-qimmati oliy qadriyat hisoblanadigan insonparvar demokratik davlatni, ochiq va adolatli jamiyatni barpo etish borasida hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak mas'uliyatimizni anglagan holda, davlatchiligidan rivojining uch ming yildan ziyod tarixiy tajribasiga, shuningdek, jahon sivilizatsiyasiga beqiyos hissa qo'shgan buyuk ajdodlarimizning ilmiy, madaniy va ma'naviy merosiga tayanib, ko'p millatli jonajon O'zbekistonimizning farovonligini va gullab yashnashini ta'minlashni maqsad qilgan holda, ushbu konstitutsiyani qabul qilamiz va e'lon qilamiz.¹

Ushbu muqaddimadan, Yangi O'zbekistonni bunyod etishda iqtisodiy rivojlanish bilan tengma-teng milliy va ma'naviy qadriyatlar poydevor vazifasini bajarishini anglashimiz mumkin.

Shu ma'noda mamlakatimizda barcha sohalar qatori ma'naviy-ma'rifiy sohani har tomonlama rivojlantirish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, 2023-yilning 22-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti raisligidagi Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining yig'ilishida aynan

¹ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Muqaddima qismi.

ma’naviyat sohasida amalga oshirilgan islohotlar va kelgusidagi rejalar atroficha muhokama etildi.

Jumladan, O’zbekiston Respublikasining yangilangan Konstitutsiyasida O’zbekistonga nisbatan Ijtimoiy davlat degan ta’rif berilgani, 2017-yil 3-avgustda ijodkor ziyolilar bilan uchrashuvning tashkil etilishi, Ma’naviyat va ijodni qo’llab-quvvatlash maqsadli jamg‘armasi tuzilgani, Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar institutining tashkil etilgani, Ma’naviyat va ijodni qo’llab-quvvatlash uchun har yili 45 milliard so‘m miqdoridagi mablag‘ ajratilayotganligini ta’kidlash joiz.

Shu bilan birgalikda Kengash yig‘ilishi doirasida 2024-yildan boshlab ma’naviyat sohasini rivojlantirish uchun bir qator o’zgarishlar amalga oshirilishini muhtaram Prezidentimiz aytib o’tdilar.

Xususan, Ma’naviyat va ijodni qo’llab-quvvatlash uchun har yili 100 mlrd. so‘m ajratilishi, Buxorodagi tarixiy maskanda Jadidlar merosi davlat muzeyi bunyod etilishi, “Jadid” nomli yangi gazeta va uning online versiyasi chop etilishini alohida ta’kidladilar.

Kelgusida bajarish lozim bo‘lgan islohotlarni sanasak ular juda ko‘p va hop.

Ayni vaqtda azaliy qadriyatlar, ijtimoiy-siyosiy qarashlar tizimida chuqr transformatsiya jarayonlari yuz bermoqda.

Ilgari o‘z maqsad va manfaatlarini asosan diplomatiya va siyosat bilan ximoya qilib kelgan dunyodagi qudratli markazlar endi ochiqchasiga bosim o‘tkazish qaramaqarshilik va to‘qnashuvlar yo‘liga o‘tgani sir emas.

Afsuski bunday keng ko‘lamli va o‘ta ziddiyatli jarayonlarning ta’siri Markaziy Osiyo mintaqasi va uning tarkibiy qismi bo‘lgan mamlakatimizni ham chetlab o‘tmayapti.

Shunday vaziyatda O’zbekistonning milliy manfaatlariga javob beradigan to‘g‘ri yo‘lni topish albatta oson bo‘lmayapti.

Biz dunyodagi barcha yaqin va uzoq davlatlar bilan o‘zaro manfaatli aloqalarni rivojlantirishga harakat qilayapmiz. Ziddiyatlar kuchaygan paytda aynan millat

fidoyilari, uyg‘oq qalbli ziyolilar, shoir va adiblar, san’at namoyondalari, ma’naviyat va ma’rifat sohasi xodimlari jasorat bilan maydonga chiqqanlar.

Bugungi tahlikali vaziyatda G‘arb ilm fani va yutuqlari bilan birga milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan vatan o‘g‘lonlari suv bilan havodek zarur.

Ularni biz tarix saboqlari va zamon talablari asosida tarbiyalashimiz shart.

Ma’rifatparvar ajdodlarimizning merosi bugun biz qurayotgan demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati uchun poydevor bo‘lib xizmat qilishi tabiiyidir.

Chunki uning g‘oya va dasturlari Yangi O‘zbekistonni barpo etish strategiyasi bilan har tomonlama uyg‘un va hamohangdir.

Bugungi g‘oyaviy mafkura sharoitida kurashga tayyormizmi? Agar biz bu dunyoda O‘zbek, O‘zbekiston degan nom bilan yashab qolishni istasak bu savolga javob berish lozim.

Shu o‘rinda Prezidentimiz quyidagi eng muhim masalalarga atroflicha to‘xtaldi:

- ma’naviyat va madaniyat sohasidagi ishlar uchun metodik asos bo‘lib xizmat qiladigan Milliy g‘oyamizni rivojlantirish bo‘yicha alohida zaruriy hujjat ishlab chiqish;
- madaniy-ma’rifiy sohadagi ishlarni yangi bosqichga ko‘tarishda hokimlarning mas’ulligini oshirish;
- teatr sohasini rivojlantirish;
- madaniy dam olish tizimini takomillashtirish, aholining bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish uchun madaniyat markazlarini ko‘paytirish;
- Maqom va baxshichilikni rivojlantirish;
- musiqa va raqs san’atini ravnaq toptirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- Xalqaro maydonda o‘zbek madaniy diplomatiyasini rivojlantirish, boy madaniy merosimizni xalqimizga va xorijiy sayyoohlarga keng tanitish ishlarini yangi bosqichga ko‘tarish;
- Muzeylar faoliyatini takomillashtirish;
- kinochilikni ham rivojlantirishdan iborat.

Yuqoridagilar asosida anglashimiz mumkinki, davlat tomonidan milliy qadriyat va an'analarni kelajak avlodga yetkazish uchun ko'plab ishar qilinmoqda. Inson fuqaro, shu jamiyatning, yurtning bir a'zosi sifatida uni rivojlantirishi uchun nima qilishi kerak? Ushbu savol barchamizni qiynashi, o'ylashga, fikrlashga, tabir joiz bo'lsa qayg'uga solishi lozim.

Yangi O'zbekistonni, Uchinchi Renessansni bunyod qilish uchun bizdan talab etiladigan bitta narsa - bu o'zbekona urf-odat va qadriyatlar ruhida tarbiya topish, diniy va dunyoviy ilmlarni chuqur o'zlashtirish, umuminsoniy qadriyatlarni hayotiy jarayonda doimiy qo'llash va boshqalarni ham da'vat etish lozim.

Zero ma'rifatparvar Ibrat domlaning quyidagi fikrlari buning yorqin dalilidir: "millatni kim isloh etar? Ulamo g'ayrat etganda millat albatta isloh topur"

Xulosa o'rnida bir nechta hikmatlarimni maqolaga ko'chirmoqchiman.

Ona buytuk zot. Ma'naviyat ham xuddi ona kabitdir. Noqobil farzand onaning umrini kamaytirgani kabi, demokratiyaning ayrim jihatlari ma'naviyatni yemirmoqda.

Siyosat va mafkura ma'naviyat bilan oziqlansagina mamlakat barqaror bo'ladi.

Iqtisod va ma'naviyat bir-biri bilan urishishi emas, murosa qilishi lozim, yo'qsa insoniyat yosh bolaga o'xshab xo'rozqandga talashadigan bo'lib qoladi.

Ma'naviyatning yuragi adabiyot, adabiyotning yuragi so'z, so'zning yaratuvchisi til va qo'l. Til va qo'lni qalb harakatga keltiradi. Ha odam inson bo'lishi uchun baribir ma'naviyatga suyanadi, yo'qsa, yiqilib to'rt oyoq bo'lib qoladi.¹

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi 01.05.2023-yil.
2. O.O'rozaliyev "Qalb oshyonib yoxud baxt kaliti" T.: 2017
3. <https://kun.uz/uz/news/2023/12/22/>

¹ O.O'rozaliyev "Qalb oshyonib yoxud baxt kaliti" T.: 2017